

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BOSHLASH MEZONLARI

*Toshkent shahar Yakkasaroy tuman
adliya bo‘limi xodimi*

G.Jumayeva

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanish yuzasidan quyidagi savollarimga javob bersangiz: I guruh nogironligi bo‘lgan fuqarolar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkinmi, agar mumkin bo‘lsa, qanday faoliyat bilan shug‘ullansa bo‘ladi?, tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish uchun qayerga murojaat etishi kerak, davlat ro‘yxatidan o‘tish tartibi qanday bo‘ladi?, ulardan qanday hujjatlar talab etiladi va qanday imtiyozlar beriladi? Agar tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun subsidiya olmoqchi bo‘lsa, qanday turdagи subsidiya beriladi?

Yo‘llagan savollaringiz yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchilikiga asoslangan holda quyidagilarni ma’lum qilamiz:

Tadbirkorlik faoliyati tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanadi.

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida: tadbirkorlik faoliyati subyektlari belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Fuqaro yakka tadbirkor sifatida, yoki yuridik shaxs tashkil etgan holda (Foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot sifatida) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli hisoblanadi. I guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar ham umumiylashtirishda davlat ro‘yxatidan o‘tganidan so‘ng tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida: Chakana savdo (Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish), hunarmandchilik faoliyati, yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirkorlik, maishiy xizmatlar bilan shug‘illanishlari mumkin (batafsil VMQ 6-son 07.01.2011-yil.);

Yuridik shaxs sifatida: mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ), oilaviy korxona (OK), xususiy korxona (XK) tashkil qilgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlik faoliyatları bilan shug‘ullanishlari mumkin (batafsil VMQ 66-son 09.02.2017-yil).

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshiriladi.(VMQ 66-son 09.02.2017-yil). Siz tadbirkorlik subyektini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun o‘zingizga yaqin bo‘lgan “Davlat xizmatlari markazi”ga tashrif buyurishingiz yoki internet jahon axborot tarmog‘i (my.gov.uz) orqali ariza qoldirishingiz mumkin.

Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun arizachidan yuridik shaxs tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanishda: tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ariza talab qilinadi. Davlat xizmatlari markaziga fuqarolik passporti bilan borish lozim.

Ariza ijobjiy hal etilganda yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlik subyektiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi, yoki davlat xizmati ko‘rsatish rad etilganda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga asoslantirilgan raddiya beriladi.

Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun arizachidan yuridik shaxs tashkil qilgan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanish uchun yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda ariza, tadbirkorlik subyekti ustavi, ta’sis shartnomasi talab qilinadi. Davlat xizmatlari markaziga fuqarolik passporti bilan borish lozim.

Ariza ijobjiy hal qilinsa, yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida guvohnoma beriladi, ushbu xizmat bekor qilinganda yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaganligi haqida asosli bekor qilish ma’lumoti yuboriladi.

Davlat xizmatlari markazida tizim orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- Tadbirkorlik subyaketini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat bojini to‘lash;
- ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani erkin olish.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanadigan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bir qancha imtiyozlar mavjud.

01.12.2017 yilda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-son Farmonga ko‘ra: nogironligi bo‘lgan shaxslar, birinchi navbatda nogironligi bo‘lgan ayollarni talab yuqori bo‘lgan kasblarga, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga o‘qitish bo‘yicha qisqa muddatli kurslar tashkil qilingan.

Farmon bilan 2018-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat ko‘rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat’iy nazar I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar hisobidan ishga yo‘llangan har bir ishchi uchun - bir oyda eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat’iy belgilangan soliq stavkasi o‘rnatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2021 yildagi PQ-57-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida:

2022-yil 1-martdan boshlab:

Soliq kodeksining 380-moddasi birinchi qismiga muvofiq bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun daromad solig‘i bo‘yicha belgilangan imtiyoz mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravaridan 3 baravarigacha oshirilishi belgilangan.

Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogironligi bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, tadbirkorlik va kasb-hunarga o‘rgatish kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan hamda maxsus sertifikatni olgan, shuningdek, tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganlarga asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish joriy qilingan. Subsidiyalar har bir nogironligi bo‘lgan

yoshning talabiga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo‘lgan miqdorda ko‘rsatilgan yo‘nalishlardan bittasi uchun ajratiladi.